



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Ibragimov Jahongir Toshniyozovich ¹, Mallayeva Husnarobonu Botir qizi ²

¹ Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi

² Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Ijtimoiy ish yo'nalishi 2-kurs talabasi

SHAVKAT MIRZIYOYEVNING “YANGI O‘ZBEKISTON STRATEGIYASI” ASARIDA IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARBLIGI MASALALARI

Annotatsiya: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb masalalari haqidagi fikrlari va muallifning sharhlari o‘rin olgan. Shuningdek, ijtimoiy –gumanitar fanlarning inson, jamiyat hayotida, ijtimoiy jarayonlarda tutgan o‘rni, vazifalari va dolzarbligi, bu fanlarni rivojlantirish uchun amalga oshirilishi lozim bo‘lgan va amalga oshirilayotgan vazifalar to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, islohotlar, farovonlik jamiyati, Ijtimoiy soha, ijtimoiy fan, ijtimoiy hamkorlik, ma’naviyat, tarix, mentalitet, mafkura, globallashuv, jamiyat.

“**Dunyoda hech qachon bir xil tong otgan emas**”. Insonlar har kuni yangi orzu-umidlar, maqsadlar va iddaolar, muammolar bilan uyg‘onadilar. Har safar yangi kun boshida inson dunyoni qaytadan anglashga, qandaydir yangilanishni qabul qilishga, anglashga majbur bo‘ladi. Yangi tushuncha va bilim bilan jamiyat quchog‘iga qadam qo‘yadi. Bunda inson uchun mavjudlikni anglash doimiy ehtiyoj bo‘lib, uni qondirish uchun ijtimoiy fanlar imkoniyatlaridan foydalanish zarur.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar insoniyatga ma’lum fan yo‘nalishlarining eng qadimgi va eng asosiy shaklidir. Barcha zamonlarda jamiyatning ilg‘or toifalari taraqqiyotning

rivojlantiruvchi omili sifatida bu fanlar tarmogʻini koʻrsatib, alohida ahamiyat berib kelganlar. Insonning boshqa mavjudotlardan farqi – uning ongi, anglash qobiliyatidir. Qachonki u boʻlgan, boʻlayotgan yoki boʻlishi mumkin boʻlgan voqeylikni teran anglasa unga nisbatan shaxsiy munosabati va positsiyasi shakllanadi. har qanday jamiyat ijtimoiy munosabatlar tizimi, majmuasidan iborat boʻladi. Jamiyat aʼzolari qaysidir hodisani ijobiy sifatda anglasa – bu hodisa aslida salbiy sifat va oqibatga ega boʻlsada ijobiy deb baholanaveradi, toki asl haqiqat oshkor etilmaguncha jamiyat shu yoʻnalishda rivojlanishda davom etadi. Shunga koʻra insonlarning voqelikni anglash imkoniyati va qobiliyatini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi ijtimoiy gumanitar qudratidan oqilona yohud yaxshiylarcha foydalanishi mumkin. Masalan, yaqin oʻtmishda yuz bergan va hamon insonlar qalbini larzaga solib keluvchi II jahon urushi aynan ijtimoiy fanlar kuchidan yomon maqsadlar yoʻlida foydalanishga misol boʻla oladi. Fashizm nazariyotchilari butun boshli bir jamiyatga oʻz maqsadlarini **ezgu sifatlar bilan** singdirishi oqibatida oʻzining omilkorligi, xarakteri, ijobiy sifatlari bilan namuna boʻla oladigan millat, jamiyat ongi aldandi, chalgʻitildi, yolgʻon gʻoyalar va behuda maqsadlar ortidan yoʻnaltirildi. Butun bir avlod aldandi.

Bunday harakatlar, urinishlar hamon davm etmoqda, Yaqin sharqda, Ukrainada, Uzoq sharqda, Osiyoning ayrim davlatlarida sodir boʻlayotgan insonlar va jamiyat hayotini izdan chiqarayotgan voqea-hodisalar ayni jamiyatlarda gʻoyaviy tarbiya masalalarida nosogʻlom tafakkur tarzi hukmronligi va ijtimoiy fanlar qudratidan gʻarazli maqsadlarda foydalanilganligi va foydalanilayotganligi oqibatidir.

Agar biz ham Ijtimoiy-gumanitar fanlar kuchiga toʻgʻri baho bermasak, milliy maʼnaviyatimizni tiklash va rivojlantirishda notoʻgʻri yoʻnalishdan ketgan, oqibatda ayrim jamiyatlar kabi bir yoki ikki avlod tafakkurini boy bergan boʻlamiz.

“Milliy maʼnaviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz hayotiga singdirishda ijtimoiy - gumanitar fanlarning ahamiyati juda katta. Afsuski, bu fanlar rivoji zamondan ortda qolmoqda. Xususan, biz uchun nihoyatda dolzarb boʻlgan tarix fani ham bundan mustasno emas. Tarixga oid ilmiy tadqiqot ishlari asosan bayonchilik, publitsistik usulda olib borilmoqda. Natijada, olis va yaqin oʻtmishimizdagi koʻpgina voqealar mohiyati ularni yuzaga keltirgan omillar va tarixiy qonuniyatlar ochilmasdan qolmoqda.

Ijtimoiy - gumanitar fanlar jamiyatda ijtimoiy dunyoqarashni shakllantirish, insonni jamiyatda xususan, davlatda boʻlayotgan oʻzgarishlariga munosabatini shakllantirish, oʻzining kim ekanligini, tarixini bilish, dunyoqarashini shakllantirish, madaniyatini rivojlantirish, umuman olganda insonni inson sifatida shakllanishi uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini koʻrishimiz mumkin.

Globalashuv jarayonlari kun sayin murakkablashib borayotgan, nafaqat oddiy insonlar, hatto ziyoli deb atalmishlarning ham koʻpchilik qismi voqealarning asl maqsad-mazmunini anglashga qiynalayotgan bugungi kunda ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarbligini ayniqsa ortib bormoqda. Chunki, XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida taraqqiyot oʻzagini texnika va texnologiyalarda deb bilish oqibatida barcha davlatlarda “Natijadorlik pastligi” bahonasi bilan maʼnaviyat, qadriyatlar tizimi, jamiyat qonuniyatlari, hodisalarni anglash va xulosalash imkonini bera oladigan, insonga insonlarni tushunish imkonini beradigan Ijtimoiy fanlar eʼtibordan chetda qoldi, yetarlicha moliyalashtirilmadi, ragʻbatlantirilmadi.

Nihoyat shunday avlod shakllandiki, ularga kim va nima haqida kuylayotgani yoki soʻzlayotgani emas, bekorchi vaqtida tashvishlardan chalgʻitib turadigan ohang-ritm, inson haqida tafakkur qilib emas balki chala, nogiron-majruh tasavvuri bilan yaratilgan tasviriy, sahna va ekran mahsulotlari, ilmsiz inson tushunishga qiynaladigan asl gʻoyalar emas, balandparvoz, shovqinli va serhasham chaqiriqlar afzalroq, muhimroq boʻlib qoldi. Bu avlod eshitgan xabarining asosini ilm bilan isbotlanishi shartligini anglab yetmaydi, ommaviy axborot vositalari orqali namoyish etilgan har qanday bemaʼnilikni “hayot haqiqati, insonlar shu bilan yashayapti”, deb qabul qiladi va ishonadi.

Kelajagimiz quruvchilari boʻlmish oʻsib kelayotgan yosh avlod taʼlim tarbiyasi bilan sayoz shugʻullanayotganligimiz, ularni turli oqimlar taʼsiriga tushib qolishiga sabab boʻlmoqda. Yaʼniki ularga oʻqitilayotgan fanlar xususan, dinshunoslik fanlari yuzaki, eʼtiborsizlik va maʼsuliyatsizlik bilan oʻqitilayotganligi sababli yosh avlod dinimizning mazmun-mohiyati toʻgʻrisida yetarlicha maʼlumotga ega boʻlmay oʻsmoqdalar. Shu sababli turli xil oqimlar ularning bunday bilimsizliklaridan foydalanib, ularni oʻz oqimlariga tortmoqdalar. Zero, birinchi Prezidentimiz taʼkidlaganlaridek, “Tabiatda ham jamiyatda ham boʻshliq boʻlmaydi, agar boʻshliq boʻlsa uning oʻrnini toʻldiruvchi oqimlar ham boʻladi.” deya bejiz taʼkidlamaganlar. Darhaqiqat, yoshlarimiz bunday boʻshliq bilan voyaga yetar ekanlar ushbu boʻshliq yovuz kuchlar bilan toʻldiriladi. Shuning uchun ham bu masalaga yuzaki emas, balki jiddiy kirishishimiz va taʼlim sifatini yuqori darajaga olib chiqishimiz lozim.

"Yoshlarimizga zamonaviy taʼlim-tarbiya bilan birgalikda, qon-qonimizga singgan muqaddas dinimizning insonparvarlik mohiyatini toʻgʻri tushuntirib berishimiz, ularni ezgu gʻoyalar ruhida tarbiyalash haqida jiddiy oʻylashimiz lozim. Afsuski, bu masalaga oʻz vaqtida jiddiy eʼtibor bermaganimiz tufayli yoshlar oʻrtasida radikal oqimlar taʼsiriga tushish holatlari uchrab turibdi".

“Ijtimoiy fanlar kam rivojlangani sababli insoniyat hozirgacha ijtimoiy falokatlar bilan kurashishda ojiz va energiyaning barcha turlari orasida oliysi boʻlgan ijtimoiy-psixologik quvvatdan foydalana bilmaydi.

Bu yangi davr global iqtisodiyotining eng samarali quroli – axborot-psixologik manipulyatsiya shakli boʻlib, u aynan yangi oʻsib kelayotgan avlodni sayoz fikrlab, yengil yashashga, murakkabliklarni chetlab oʻtishga, inson hayotda bir marta yashashligi sabab oʻzini ogʻir fikrlovlar asiriga aylantirmaslikka daʼvat qiladi. Bu orqali mafkuraviy immunitet kuchsizlantiriladi, katta avlod vakillari tomonidan toʻgʻri yoʻlga burishga harakat qilinishini esa fikriy zoʻravonlik va taziyyiq, bosim, eskilik sarqiti sifatida tarannum etadilar va oʻz qurollari OAV – orqali imkon qadar kengroq va boʻyoqdorroq targʻib etadilar.

“Maʼnaviy immuniteti kuchsiz boʻlgan, ayrim yoshlarimiz yurish-turishida ham, muomala munosabatlarida ham koʻr-koʻrona chet elga ergashmoqdalar.”

Insoniyat tarixi shunday qoidani shakllantirdi – **“Maʼnaviyat insonga emas, inson maʼnaviyatga ergashishi lozim. Umumjamiyat miqyosida taʼsir kuchiga ega boʻlgan gʻoyalar alohida shaxs yoki guruhlar manfaatiga emas, jamiyat manfaatlariga xizmat qilishi shart.”** Yuqorida taʼkidlanganidek, ijtimoiy - gumanitar fanlar inson hayotida benihoya yuksak ahamiyatga ega. Chunki, insonning, yaʼni uning ota-bobolarining kim ekanligini, oʻzining kim ekanligini, qadriyatlarini umuman olganda insonning inson ekanligini anglatib turuvchi tushunchalarni oʻz ichiga oladi.

“Oʻtmishdagi yutuq va gʻalabalardan kuch-quvvat olib, xato va magʻlubiyatlardan xulosa va saboq chiqarib yashaydigan xalq oʻzining yoʻli va kelajagini toʻgʻri belgilay oladi.”

Demak, biz ijtimoiy - gumanitar fanlarning rolini oshrish maqsadida bir qancha islihotlar amalga oshirishimiz lozim. Xususan, “Tarbiya xonadon ostonasidan boshlanadi” deyishganidek, biz yoshlarimizga ta’rixi, ota-bobolarining kim bo’lganligi, ma’naviy yuksak qadriyatlar va h.k. to’g’risida avvalo, tug’ilib yashayotgan xonadonidan boshlab ularning qalbiga va shuuriga singdirib boshlash kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta’siri sezilarli bo’lmaydi. Shu o’rinda shuni aytmoqchimanki, bu yo’lda barchamiz birgalikda harakat qilishimiz lozim bo’ladi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, *“Alohida ta’kidlab o’tmoqchiman, agar kimki ma’naviyat masalasini bu faqat ma’naviyat markazi yoki tegishli vazirlik va idoralarning ishi deb o’ylasa katta xato qiladi. Bu davlatimiz va jamiyatimiz, hamma rahbarlar bizning ishongan tog’imiz bo’lgan ilg’or ziyolilarimiz, barcha –barchamizning eng asosiy va muhim vazifamizdir”*, deb da’vat etganlar.

Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan *“Har bir nuroniy besh nafar yoshga murabbiy,” shuningdek, “Har bir ziyoli bir mahallaga ma’naviy homiy” tamoyillari ham aynan ijtimoiy - gumanitar fanlardan biri bo’lmish ma’naviyatni targ’ib qilishga uni keng jamoatchilikka yetkazishga asoslanadi. Shuningdek, “Buyuk sarkardalarimizning jasorati va harbiy merosini o’rganish”* to’g’risida ommaviy filmlar tayyorlash va xalqimizga tez fursatlarda namoyish etish to’g’risidagi Prezidentimizning qarori tarix sohasini rivojlantirishga qaratilganligini ko’rishimiz mumkin. Shu bilan birga Prezidentimiz ta’kidlaganidek, ushbu sohalarda faoliyat yuritayotgan mutaxassislarimizni yetaricha rag’batlantirib turishimiz kerak.

“Bir haqiqatni barchamiz chuqur anglab olishimiz zarur. Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta’siri bo’lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o’rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur. Buning uchun avvalo, O’zbekistonda tarix fanini 2030 - yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishimiz vaqti –soati keldi deb, o’ylayman. Tarix institutini bu fanni rivojlantirish bo’yicha tayanch ilmiy muassasa etib belgilash kerak.”

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy – gumanitar fanlar nafaqat bizga bilim, balki, yuksak madaniyat- ma’rifat tuyg’ularini ham shakllantiradi. Biz bugungi kunda yangi O’zbekistonni yaratish ostonasida turgan ekanmiz yuqorida keltirilgan barcha vazifalarni bor ishtiyoqimiz bilan amalga oshirishimiz hamda ijtimoiy –gumanitar fanlarning rivojlanishiga o’z hissamizni qo’shishimiz darkor.

Buning uchun:

Birinchidan, ta’limning barcha darajalarida ijtimoiy – gumanitar fanlarning o’qitilishida yangicha yondoshuvni joriy etishimiz lozim. Bunda fanlarning maqsadini axborot beruvchi emas, **himoya vositasi** yo’nalishida shakllantirish;

Ikkinchidan, ijtimoiy-gumanitar fanlarni an’anaviy shaklidan boshqacha, masalan, “Tanqidiy fikrlash”, “Muammoli masalalar”, “Ijtimoiy nuqtai nazar” “Axborot tahlil” “Axborot-psixologik himoya” shaklida o’qitish;

Uchunchidan, ijtimoiy-gumanitar fanlar bo’yicha o’tkaziladigan anjumanlar, konferensiyalarda balandparvoz ma’ruzabozlik emas aniq muammoning yechimiga qaratilgan fikrlarni targ’ib qilish va rag’batlantirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar roʻyxati

1. Sh.Mirziyoyev Yangi Oʻzbekiston strategiyasi. – Toshkent: “Oʻzbekiston” nashriyoti, 2021. - 464 bet.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “2017 — 2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha” farmoni. <https://lex.uz/docs/-3107036>
3. Ijtimoiy xizmat. D.Raxmonov. Uslubiy qoʻllanma. Samarqand: SamDU nashri, 2007. - 164 b.
4. Yusupov R.K. Ijtimoiy ishga kirish. Oʻquv qoʻllanma. - Samarqand: SamDU nashri, 2020. - 268 bet.
5. Ijtimoiy ish va ijtimoiy taʼminotga kirish: Darslik/ A.V. Vaxabov, Sh.Sh.Zaxidova, B.B.Baxtiyorov, D.Sh.Odinayev, J.N.Fayzullayev; T.: Iqtisod-Moliya, 2018. – 168 b.
6. Ganiyeva Maʼrifat Xabibovna, Kayumov Qaxramon Nozimjonovich, Sherov Maʼruf Boltayevich. Ijtimoiy ishga kirish. Darslik – Toshkent: VNESHVESTPROM nashriyoti. 2020. – 276 bet.
7. Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambagʻallikni qisqartirish vazirligi - <https://www.mineconomy.uz>
8. Oʻzbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qoʻmitasi - <https://stat.uz/uz/>